

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

FarDU
ILMIY
XABARLAR

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2024 1-SON
ILOVA TOPLAM: GEOGRAFIYA

НАУЧНЫЙ
ВЕСТИК.
ФерГУ

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

| | |
|--|-----|
| D.G'.Mo'minov, X.O.Abdinazarova | |
| Tabiiy landshaftlardan iqtisodiy – ijtimoiy geografik foydalanishning bazi masalalari | 144 |
| M.O.Gopirov | |
| Изменения в территориальной структуре автомобильной промышленности США | 148 |
| Y.I.Ahmadaliyev, X.A.Abduvaliyev | |
| Ershi shahrining yuzaga kelishi va rivojlanishda geomorfologik omillarining o'rni va ahamiyati | 153 |
| K.M.Mahmudov, X.T.Egamberdiyev, G.X.Xolbayev, S.M.Muminova | |
| Iqlim o'zgarishi sharoitida havo harorati hamda atmosfera yog'inlarining o'zgarishini baholash (Andijon viloyati bo'yicha) | 157 |
| O.I.Abdug'aniyev, Z.I.Mamirova, N.A.Ahmadjonova | |
| Yer tuzish ishlarida muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni loyihalashtirish va asoslash..... | 167 |
| A.M.Toshpo'latov, Sh.Z.Jumaxanov | |
| Anklav hududlarni geografik tadqiq etishning konseptual asoslari | 172 |
| D.R.Eshmirzayev, G.X.Xolbayev, X.T.Egamberdiyev | |
| Iqlim o'zgarishi sharoitida havo haroratining davrlar bo'yicha o'zgarishini baholash (Samarqand viloyati misolida) | 180 |
| E.G'.Mahkamov, Sh.Sh.Hakimova | |
| Tabiatdan oqilona foydalanish va muhofaza qilishning tarixiy-ekologik jihatlarini | 186 |
| Y.I.Ahmadaliyev, B.S.Tojiddinov, X.I.Saidova | |
| Yer resurslarini majmualari tadqiq etishga geografik yondashuvning zarurati..... | 190 |
| N.O'.Komilova | |
| Etnoekologik tadqiqotlarning ijtimoiy-geografik yo'nalishlari va bosqichlari..... | 195 |
| Y.I.Ahmadaliyev, P.S.Otaqulov, A.E.Madraximov | |
| Geografik terminlarning tabiatni muhofaza qilishdagi o'rni va ahamiyati..... | 199 |
| Z.A.Temirov, D.A.Turg'unboyeva | |
| Tashqi mehnat migratsiyasining demografik jarayonlarga ta'siri..... | 206 |
| O.I.Abdug'aniyev, M.M.Qahhorova | |
| Tayanch ornitologik hududlarini muhofaza qilishning ekologik-geografik jihatlarini..... | 212 |
| M.M.Atajonov | |
| Andijon viloyati qishloq joylarida aholiga tibbiy xizmat ko'rsatishning ba'zi bir masalalari | 217 |
| A.A.Isayev, S.A.Ergashev | |
| Andijon viloyatida paxta-to'qimachilik klasterlari tomonidan sikilli ishlab chiqarishni tashkil etishni takomillashtirish | 220 |
| M.N.Dehqonboyeva, M.R.Mahammadova | |
| Farg'ona viloyatida yo'ldosh shaharlar loyihasining ayrim jihatlarini | 224 |
| D.M.Abduraxmonov | |
| Landshaftlarni funksional rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar | 230 |
| D.B.Kosimov | |
| Chegara hududlaridagi muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni integratsiyasining nazariy asoslari | 234 |
| H.N.Naimov | |
| Landshaftlarni kartalashtirish va ulardan foydalanish masalalari (Shimoliy Farg'ona misolida) | 239 |
| M.H.Otamirzayeva | |
| Daryo havzasi landshaftlarining strukturasi va funksiyasini shakllantiruvchi tabiiy, biologik va ijtimoiy tizimlar | 243 |
| U.Sh.Uktamov | |
| Markaziy Farg'ona cho'l landshaftlarining antropogen omillar ta'sirida sodir bo'layotgan o'zgarishlari..... | 248 |
| S.M.Xudoyberdiyeva | |
| Talabalarda sport turizmi ko'nikmalarini shakllantirishda tabiat elementlarining o'rni..... | 252 |
| T.D.Komilova | |
| Hududlarning ekologik karkasini rejalashtirishda landshaft yondashuvidan foydalanish | 257 |

**MARKAZIY FARG'ONA CHO'L LANDSHAFTLARINING ANTROPOGEN OMILLAR
TA'SIRIDA SODIR BO'LAYOTGAN O'ZGARISHLARI**

**ИЗМЕНЕНИЕ ПУСТЫННЫХ ЛАНДШАФТОВ ЦЕНТРАЛЬНОЙ ФЕРГАНЫ ПОД
ВЛИЯНИЕМ АНТРОПОГЕННЫХ ФАКТОРОВ**

**CHANGES IN THE DESERT LANDSCAPES OF CENTRAL FERGANA UNDER THE
INFLUENCE OF ANTHROPOGENIC FACTORS**

Uktamov Urayimjon Shavkatjonovich¹

¹Andijon davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqola Markaziy Farg'ona cho'l landshaftlarining antropogen omillar ta'sirida o'zgarishinilari haqida yoritilgan. Shuningdek Markaziy Farg'ona cho'l landshaftlarining insonlar tomonidan o'zlashtirilishi natijasida sodir bo'layotgan cho'llanish jarayoni vujudga kelmoqda.

Аннотация

Обсуждаются изменения пустынных ландшафтов Центральной Ферганы под влиянием антропогенных факторов. Также процесс опустынивания происходит в результате эксплуатации человеком пустынных ландшафтов Центральной Ферганы.

Abstract

Changes in the desert landscapes of Central Fergana under the influence of anthropogenic factors are discussed. Also, the process of desertification occurs as a result of human exploitation of the desert landscapes of Central Fergana.

Kalit so'zlar: *Markaziy Farg'ona, cho'llar, landshaft, antropogen, iqtisodiy omil, tuproq qoplami, qishloq xo'jaligi, eroziya, biologik xilma hillik, aholi punkti, o'simlik, hayvonot, defoliyatsiya, flora va fauna.*

Ключевые слова: *Центральная Фергана, пустыни, ландшафт, антропогенный, экономический фактор, почвенный покров, земледелие, эрозия, биологическое разнообразие, населенный пункт, растение, животное, дефолиация, флора и фауна.*

Key words: *Central Fergana, deserts, landscape, anthropogenic, economic factor, soil cover, agriculture, erosion, biological diversity, settlement, plant, animal, defoliation, flora and fauna.*

KIRISH

Markaziy Farg'ona cho'l landshaftlari o'zgarishlarining asosiy sabablari tabiiy va antropogen omillar, ya'ni inson faoliyati hal qiluvchi ahamiyatga ega. Markaziy Farg'ona cho'llari landshaftlari o'zgarish jarayonlariga ta'sir etayotgan antropogen omillar bir necha guruhlariga bo'lishimiz mumkin. Eng asosiysi esa iqtisodiy va ijtimoiy omillardir.

Har qanday sharoitda ham insonning tabiatga ta'sirida ma'lum me'yorga rioya qilinishi kerak. Aks holda, tabiatda minglab yillar davomida shakllangan muvozanat buziladi va qashshoqlanish boshlanadi.

Markaziy Farg'ona cho'l landshaftlarini o'zlashtirilishiga asosiy sabab, qo'riq yerlarni xo'jalik jixatdan o'zlashtirish va sug'orish, ularni qishloq xo'jaligida foydalanishga kiritish mamlakat iqtisodiyotini rivojlanishida muhim ahamiyatga ega edi. Yangidan o'zlashtirilib sug'oriladigan dexqonchilik barqarorligi kafolatlangan muttasil mo'l hosil olish birinchi navbatda fan va texnika yutuqlaridan foydalanishni taqozo etadi. O'zbekistonda yangi yerlarni o'zlashtirish va sug'orish zonalarini, jumladan, Markaziy Farg'onadagi cho'lli yangi yerlarni sug'orish va xo'jalik jixatdan o'zlashtirish muammosini analiz qilish va ularni qishloq xo'jaligida foydalanishga kiritish Respublika sharoitida ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan katta ahamiyat kasb etadi.

MAVZUGA DOIR ADABIYOTLAR TAHLILI

Farg'ona vodiysi landshaftlari shu jumladan Markaziy Farg'ona cho'l landshaftlari haqidagi malumotlarni M.A.Orlov, A.N.Rozanov, S.N.Rijov, B.V.Gorbunov, N.V.Kimberg, N.G.Minashina, V.A.Molodsov, R.Q.Qo'ziyev, A.Maqsudov, K.M.Boymirzayev, R.Y.Xoliqov kabilarning ilmiy tadqiqotlari tuproqlarning hosil bo'lishi, geografik tarqalishi, xossa va xususiyatlari, genezisi, evolyutsiyasi va ekologik masalalariga bag'ishlangan.

M.A.Orlov (1933, 1937), V.N.Kimberg (1962), A.A.Maqsudov (1988, 1990, 1993), K.M.Boymirzayevlar (1995, 2007, 2020) tuproqlar tarkibidagi agroirrigatsiya yotqizqlarini qalinligiga ko'ra tasniflashdi. A.Maqsudov va K.M.Boymirzayevlar tomonidan (1990) Farg'ona vodiysi tuproqlarining (Markaziy Farg'ona cho'l tuproqlari) agroirrigatsiya yotqizqlari qalinligi kartasi tuzildi.

Shu bilan bir qatorda dehqonchilik tarixi to'g'risidagi materiallar yangi tuproq tipchalarining paydo bo'lishi, tabiiy o'simlik va hayvonot dunyosining o'zgarib, madaniylashib borishi aniq ma'lumotlar bilan boyitildi.

Antropogen landshaftlar hududiy yondosh bo'lgan boshqa landshaftlaridan komponentlarining mutlaqo o'zgartirilganligi, doimiy ravishda boshqarilish xususiyatlari bilan farq qiladi. Ularda komponentlarning o'zaro aloqadorligi ham tabiiy landshaftlardagi komponentlarning o'zaro aloqadorligiga qaraganda o'ziga xos ravishda sodir bo'ladi. Ular boshqa landshaftlardan faqat geografik xususiyatlari bilan emas, balki ichki strukturasiining murakkabligi, strukturali-dinamik rivojlanishi bilan ham farq qiladi.

NATIJALAR VA MUHOKAMALAR

Hozirgi kunda Markaziy Farg'ona cho'l landshaftlarining o'zgarishga asosiy omil bu iqtisodiy omillar hisoblanadi. Iqtisodiy omillar Markaziy Farg'ona cho'l hududining kengayishiga eng kuchli ta'sir ko'rsatib kelmoqda. Landshaftlarning antropogen o'zgarishi, kengayib va rivojlanib borishiga ko'plab oqibatlar, cho'l landshaftlarini qishloq xo'jaligi maqsadidan foydalanish asosida o'zlashtirish va ulardan foydalanishning samarasiz usullaridan foydalanish juda katta ta'sir etib kelmoqda.

Qumli cho'l landshaftlar hududini o'zlashtirish natijasida, katta maydonlardagi tuproqlar xolatining o'zgarishi, bu esa tuproq qoplaminin tarkibiy (mexanik va organik) qismlariga buzilishiga olib keladi. Buning natijasida tuproq eroziyasi (deflyatsiya va suv eroziyasi) jarayonlari rivojlanadi va tuproqning unumdorlik qismi esa yo'q bo'lib ketishiga olib keladi. Cho'l landshaftlarini o'zlashtirish texnogen landshaftlarning kengayishiga yordam beradi. Masalan sanoat korxonalari, aholi punktlari, transport yo'llari, elektr uzatish liniyalari tarmog'i (turli yo'llar, quvurlar, elektr uzatish liniyalari) va boshqalar. Ko'chib yuruvchi texnika va transport vositalari bu yerda tuproq eroziyasi o'choqlarining paydo bo'lishiga sabab bo'ladi. Sanoat majmualari va aholi punktlari atrofidagi katta maydonlarda cho'l landshaftlarining ishlab chiqarish chiqindilari va maishiy chiqindilar bilan ifloslanishi tobora ortib bormoqda. Texnogen landshaftlar va ularning ta'sir natijasida tabiiy ekotizimlarning maydonini kamaytiradi, bu esa o'zlashtirilayotgan hududlardagi biologik xilma-xillikning kamayishiga olib keladi (3).

Quyida cho'l landshaftlarining antropogen omillarini tahlil qilishda qo'llaniladigan iqlim o'zgarishining antropogen omillar bilan o'zaro ta'sirining namunaviy sxemasi keltirilgan (5).

Markaziy Farg'ona cho'l landshaftlarining **qishloq xo'jaligi** maqsadlarida o'zlashtirilishi hududlarida tuproqni qayta ishlash va ekinlarni yetishtirishning agrotexnik usullariga to'g'ri rioya qilmasdan yerlarni o'zlashtirish va sug'orish tuproqlarning sho'rlanishiga olib kelmoqda.

Markaziy Farg'ona cho'l landshaftlarida joylashgan ko'plab sug'orish inshootlari qishloq xo'jaligining irrigatsiya usullari natijasida tuproqning shamol va suv eroziyasi jarayonlari rivojlanib bormoqda. Sug'oriladigan yerlarning periferiyasi bo'yicha (shu hududning atrofi) kollektor-drenaj suvlarining tashlanishi natijasida landshaftlarning botqoqlanishi va tuproqlarning sho'rlanishiga olib keladi.


Markaziy Farg'ona qismidagi qo'riq yerlarni o'zlashtirish va sug'orish urushdan keyin ayniqsa 50-yillar boshlarida yanada rivojlantirildi. Yalpi hosil ham paxta maydonlarining kengaytirilishi hisobiga har gektardan olinadigan hosilning ortib borishi hisobiga ko'paydi.

Demak, kelgusida Farg'ona vodiysida qishloq xo'jaligi maxsulotlarini yetishtirish va ishlab chiqarishini yanada kuchaytirish va ishlab chiqarish tarmoqlarini kompleks rivojlantirish zarur.

Intensifikatsiyalashning asosiy ekinlarning hosildorligini oshirish va ekin maydonlari strukturasiini yaxshilash yo'li bilan qo'riq va bo'sh yotgan yerlarni sug'orish rejimini yaxshilashdan iborat, bu tadbir faqat paxtachilikni emas, balki chorvachilik, pillachilik va qishloq xo'jaligining boshqa tarmoqlarining rivojlantirishni ta'minlaydi. Markaziy Farg'ona yerlarini sug'orish va o'zlashtirish ham Mirzacho'l, Qarshi cho'li va boshqa qo'riq yerlarni o'zlashtirish kabi O'zbekistonda qishloq xo'jaligini ayniqsa paxtachilikni yanada rivojlantirishning zarur sharti bo'lib qoldi.

Iqlim o'zgarishi va landshaftlarning o'zgarishi davrida antropogen omillar ta'sirlari o'rtasidagi aloqalar

Inson faoliyati ta'siri



Markaziy Farg'ona cho'l landshaftlarining o'zlashtirilishi natijasida hududda irrigatsiya ham rivojlanib, daryolar oqimini tartibga solish, kanallarning bunyod etilishi va Markaziy Farg'ona suv omborining qurilishi mintaqada 20-25 yil ichida atrof-muhitda tub o'zgarishlarga olib keldi. O'zlashtirilgan hududlarda sug'orish usullaridan noto'g'ri foydalanish natijasida, daryolarning quyi oqimlaridagi tabiatining o'zgarishiga ham ta'sir ko'rsatmoqda. Buning natijasida daryo vodiylari va deltalarining gidrologik rejimi tubdan o'zgaradi, botqoq va o'tloqli yerlar qurishi va hududlarning cho'llanishi natijasida chorvachilik uchun ozuqa ishlab chiqarish keskin kamayib boradi (9).

Bugungi kunda Markaziy Farg'ona cho'l landshaftlari qurg'oqchil zonalarning yaylov mintaqasida cho'llanishning ortib borishi va asosiy omili esa chorva hayvonlarining muttasil ko'p boqilishi ham sabab hisoblanadi. O'simlik qoplaminin siyrakligi va cho'l fitosenozlarining past mahsuldorligi, o'tlayotgan hayvonlar tomonidan o'simliklarning sezilarli darajada nobud qilishi hududlardagi landshaftlarning o'zgarish jarayonini tezlashtiradi.

Markaziy Farg'ona cho'l landshaftlarining o'zgarishiga yana bir asosiy sabablardan **ijtimoiy omillar** ham muhim ro'l o'ynaydi. Markaziy Farg'ona cho'l landshaft hududlariga yaqin joylashgan aholi punktlaridagi axoli, turli turdagi yoqilg'i (ko'mir, gaz va boshqalar) bilan kam taminlanganligi sababli cho'l landshaftlarida tarqalgan turli o'simlik resurslaridan yoqilg'i sifatida foydalanishga majbur bo'lmoqda. Shu bilan birga, cho'l landshaftlarining nafaqat daraxtsimon (daraxt va buta) o'simliklari, balki yarim buta (shuvoq) ham katta hajmda yo'q qilinmoqda. Bugungi kunda cho'l landshaftlarida tarqalgan tuproqlarni himoya qilish funksiyasiga ega bo'lgan cho'l daraxt va buta o'simliklarining yo'q qilinishi deflyatsiyaning rivojlanishiga va hududning tobora qurib ketishiga olib kelmoqda. Cho'l mintaqasining edifikatorlari hisoblangan daraxtlar va butalarning kamayishi ular bilan bog'liq bo'lgan ko'plab boshqa o'simliklarning floradan chiqib ketishiga sabab bo'lmoqda. Noqonuniy ovchilikdan foydalanish ham cho'l landshaftlarining hayvonot dunyosiga, biologik xilmaxillikka kuchli salbiy ta'sir ko'rsatib kelmoqda (4).

XULOSA

Markaziy Farg'ona cho'l landshaftlarining fauna va florasini, ayniqsa, aholi punktlariga yaqin hududlaridagi cho'l biotsenozlaridan noqonuniy foydalanish daraxtsimon o'simlik va qimmatbaho hayvon turlari va ularning populyatsiyalari yo'qolib ketish xavfi ostida qolmoqda.

Qishloq xo'jalik hayvonlari haddan tashqari o'tlangan hududlarda fitotsenozlarda o'simlik turlari soni 2-4 martaga kamayadi. Cho'l landshaftlarining biologik xilmaxilligiga noyob va yo'qolib ketish xavfi ostida turgan o'simlik va hayvon turlari kiradi. Shuningdek, yovvoyi va qishloq hayvonlari o'rtasida ma'lum bir raqobat mavjudligi tufayli sodir bo'ladi.

Markaziy Farg'ona cho'l landshaftlari tabiatidan foydalanishning huquqiy jihatlari yer, suv, yer osti boyliklari, o'simlik va hayvonot dunyosi tabiatini muhofaza qilish, cho'llanish jarayonini oldini olish uchun chora tadbirlar ishlab chiqish va ularning bajarilish nazoratini kuchaytirish lozim.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Аббасов С.Б. Қизилқум ландшафтлари ва уларнинг геоэкологик жиҳатлари. География фанлари доктори дисс. автореферати. -Т., 2007. – 32
2. Абдулқосимов А. Ўрта Осиё чўл ландшафтлари ва уларни шакллантирувчи омиллар. //Чўл зонаси ландшафтлари ресурсларидан самарали фойдаланишнинг географик асослари. - Бухоро, 1997. -Б. 32-37.
3. Боймирзаев К.М. Фарғона водийси воҳа ландшафтларидан фойдаланиш ва муҳофаза қилиш. Тошкент, "Фан" нашриёти, 2007. – 130 б.
4. Зокиров Ш.С., Боймирзаев К.М. Ландшафтшунослик асослари (маърузалар матни). –Наманган, 2009.
5. Ҳамидов А.А. Фарғона водийсида олиб борилган табиий географик тадқиқотларнинг геоэкологик аҳамияти// Номзод. дис. авторефер. –Ташкент, 2006.
6. Кимберг Н.С. Почвы пустынной зоны Узбекистана. – Ташкент, 1974.
7. Рафиков А.А. Устойчивость аридных геосистем Узбекистана к воздействию антропогенной нагрузки.//Проблемы освоения пустынь. -1992.
8. Чуб В.Е. Исследование пустынных зон Центральной Азии по спутниковой информации // Проблемы освоения пустынь. -1998.
9. Уктамов У.Ш. Факторы, влияющие на трансформацию ландшафтов центральной ферганской пустыни. "Экономика и социум" №7(98) 2022. 378-383 с
10. Uktamov U.Sh. Anthropogenic factors affecting the desertification of the deserts of Central Fergana. Journal of Geography and Natural Resources 2024. P 32-37